



TASAVVUF MASHOYIXLARI NAZDIDA SAMO' MASALASI

Boqijonov Muhammadamin

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tasavvuf ta'limotidagi samo' (eshitish) masalasiga bag'ishlangan tahlil o'rin olgan. Samo' so'zi tasavvufda maxsus istiloh sifatida zikrga oid she'r, musiqa, ohang va shunga o'xshash ruhiy ta'sirga ega vositalarni eshitish ma'nosida qo'llaniladi. Maqolada ta'kidlanishicha, ba'zi so'fiy muhitlarda samo' bilan bog'liq turli bid'at va sunniy tasavvufga begona unsurlar paydo bo'lgan — masalan, musiqa bilan zikr qilish, raqs, banj moddalar, tanani ezish va ovoz chiqarish kabi holatlar.*

Doktor Soix Ali Husaynning ta'kidlashicha, tarixiy jarayonda tasavvufga boshqa madaniyatlar ta'siri orqali sof islomiy manbalarga zid bo'lgan an'analar kirib kelgan. Ammo shunga qaramasdan, islomiy tasavvufning asl mohiyati qalbni poklash, nafsni tarbiyalash, muhabbat va zikr orqali Allohga yaqinlashishdan iborat bo'lib, samo' bunda yuksak ruhiy vosita sifatida qo'llanilgan.

Ayniqsa, Naqshbandiya, Qodiriya, Suhrovardiya va Chishtiya kabi tariqatlarda samo' masalasiga nisbatan muvozanatli va ilmiy yondashuvlar bo'lib, uning sKalit so'zlar:

Kalit so'zlar: *Samo'; tasavvuf; zikr; so'fiylik; tariqat; islomda musiqa; sunnat va bid'at; ruhiy tarbiya; Naqshbandiya; Qodiriya; madaniy ta'sirlar, shartlari va chegaralari belgilangan.*

«Samo'» so'zi arabcha bo'lib, «eshitish» ma'nosini anglatadi. Bu so'z tasavvufga xos istilohlardan biriga aylanib qolgan. Tasavvufda «samo'» so'zi zikr yoki zikrga oid narsalarni eshitishga ishlatiladi.



Bunda zikr uchun musiqa, qo'shiq, she'r va boshqa narsalarni eshitish ko'zda tutilgan. Turli omillarga ko'ra, so'fiylar orasida zikrni raqs tushib turib qilish, musiqa ila qilish, turli she'rlarni ohang ila aytish, yosh bolalarni go'zal kiyimlar kiygizib, o'rta o'tirg'izib qo'yib ado etish kabi g'alati odatlar paydo bo'lgan. Bunga asosan sunniy tasavvufga begona bo'lgan unsurlar sabab bo'lgan. Ba'zi bir bohislarning ta'kidlashlaricha, chet ellardagi va boshqa dinlardagi toifalar sabab bo'lgan holatlar ham bor.

Doktor Soyix Ali Husayn o'zining «Lamahotun minat-tasavvufi va tarixihi» nomli kitobida quyidagilarni yozadi: «Tasavvufning yomon nasibalaridan biri chegarasiz ravishda boshqa madaniyatlar, yo'nalishlar va fikrlarga ochiq bo'lishdir. O'shalar o'zi bilan sog'lom mantiq va tafakkurga to'g'ri kelmaydigan turli narsalarni olib kelganlar. Hijriy yettinchi asrda Iroq va arab sharqiga hind mutasavviflari kelishgan. Ular hakimlardan ko'ra ko'proq firibgarlarga o'xshar edilar. O'shalar so'fiylarning halqalariga turli sun'iy banjlarni olib kirdilar va ularni «banji asror» deb atadilar. Yana «falakning aylanishiga o'xshaydi» deb, aylanib tushiladigan raqsni ham kiritdilar. Bu raqs Mavlaviy tariqatida hozirgacha ijro etilib kelmoqda.

Ular kiyimlarni yirtishni ham odatga kiritdilar. Bu xuddi suyuq amirlarning go'zal qo'shiqchi qizlarning qo'shig'ini eshitganda qiladigan ishiga o'xshaydi. Bid'atlar birin-ketin kelaverdi. Afsungarlik o'saverdi. Oxiri borib karomat bilan sehrning orasini ajratib bo'lmaydigan holga yetdi. Bu ishlar Basradagi Rifoia, Misrdagi Bayumiya, Miknosdagi Iysaviya tariqatlarida avj oldi. Ular orasida ilon, chayon, cho'g' va shisha siniq-larini yeyish, badanlarga pichoq va qilichlarni sanchish va boshqa shunga o'xshash ishlarni qilish keng tarqaldi.

Deyarli barcha tariqatlarda zikr davomida baqir-chaqir va dod-voylar ko'paydi. Ularda Alloh taoloning ismi o'rniga turli anglab bo'lmaydigan ovozlarni chiqarish odatga aylandi. Mazkur ovozlardan ba'zilarini harf bilan ifoda qilib ham, yozib ham bo'lmaydi.



Islomiy tasavvuf, ya'ni tariqat ilmi asrlar davomida musulmon ummatining ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan yo'nalishlardan biri sanaladi. Ushbu yo'nalish nafaqat insonning ruhiy kamolotga erishishi, balki jamiyatda axloqiy-irodaviy fazilatlarni tarbiyalashda ham muhim o'rin tutgan. Tasavvuf ahli – ya'ni tariqat mashoyixlari – Qur'on va Sunnat asosida ruhiy tarbiya, zohidlik, zikr va muhabbatga asoslangan yo'lni tanlab, avvalo o'z nafsini poklashga, so'ngra esa boshqalarni hidoyatga yetaklashga harakat qilganlar.

Tasavvufni muhim usullardan biri bu “samo’”, ya'ni ilohiy tuyg'ularni uyg'otuvchi tarzda musiqa yoki ohanglar eshitish an'anasidir. Samo' orqali solik (tasavvuf ahli yo'liga kirgan shaxs) qalbining yumshashi, Allohga bo'lgan muhabbatining ortishi, ichki dunyosining uyg'onishi ko'zda tutiladi. Biroq, samo' masalasi islom olamida har doim ham bir xil baholangan emas. Ba'zi ulamolar uni bid'at deb rad etgan bo'lsa, mashhur mashoyixlardan ko'pchiligi uni ma'lum shartlar va maqsadlar bilan joiz deb hisoblashgan.

Ayniqsa, Naqshbandiya, Qodiriya, Chishtiya, Suhrovardiya kabi yirik tariqatlar tarixida samo' masalasi o'ziga xos ilmiy va amaliy o'ringa ega bo'lib, ularning mashoyixlari tomonidan turlicha yondashuvlar ilgari surilgan. Ularning bu masalaga oid qarashlari, shartlari va chegaralari zamonaviy islomiy va madaniy tafakkur uchun ham dolzarbdir. Bugungi kunda esa, turli ommaviy axborot vositalari va madaniy oqimlar ta'sirida musiqa va samo' masalasining islomiy bahosi yana ham muhim masalaga aylangan.

Tasavvufda “samo’” so'zi zikr yoki zikrga oid narsalarni eshitishga ishlatiladi. Tinglash (ya'ni, qo'shiq va musiqa eshitish) masalasida turli qarashlar mavjud: bu joizmi yoki joiz emasmi? Ba'zi ulamolar tinglashni joiz deb hisoblaganlar va bu borada Qur'on va Sunnatdan hamda aql asosidagi dalillarga tayan ganlar. Boshqa bir toifa esa tinglashni joiz deb bilmagan, uni inkor etgan va bu amaldan shayton mo'min bandaning qalbiga kirib, uni jiddiy ishlar dan



chalgʻitib, oʻyin-kulgiga yetaklaydi, Allohdan uzoqlashtirib, shahvat va nafs istaklariga yaqinlashtiradi, deb hisoblaganlar.

Biz avvalo ikki tomonning — tinglashni joiz deb hisoblaganlar va joiz emas deganlarning fikrlarini koʻrib chiqamiz. Soʻngra Imom Gʻazzoliyning bu boradagi qarashi atrofida toʻxtalamiz. Dastlab esa, tinglashni joiz emas deb hisoblaganlarning fikridan boshlaymiz va ular tayangan dalil hamda hujjatlarni tahlil qilamiz.

Shubhasiz, tinglashni inkor etgan kishilarni bunday xulosaga kelishga undagan bir qator omillar mavjud. Ularning nazarida qoʻshiq aytish zohiran jiddiylik va viqordan koʻra koʻproq bekorchilik va oʻyin-kulgiga yaqin turadi. Ular koʻpincha qoʻshiq tinglovchilar tebranib, raqsga tushib, qarsak chalishlarini taʼkidlaydilar — bu holat esa, ularning fikricha, dinning salobati, ibodat va zikrlarning ulugʻligiga mutlaqo toʻgʻri kelmaydi.

Yana bir asos sifatida ular shuni keltiradilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam zamonlarida bunday tinglash majlislari boʻlmagan, shu sababli ularni joiz deb boʻlmaydi. Ular tinglashni shaytonning makri va tuzogʻi deb hisoblaganlar. Bu tuzoq orqali esa ilm, aql va din ulushidan nasibasi kam boʻlganlarni chalgʻitadi, johillar va botilga ergashganlarning qalblarini oʻziga rom etadi. Ularning fikriga koʻra, bu “shaytonning Qurʼoni”, Alloh rahmatidan toʻsuvchi qalin parda, Lut qavmi va zino ahli uchun “ruqya”, bu orqali buzgʻunchi oshiq oʻz maʼshuqasiga erishishni orzu qiladi va shu sababli Qurʼonni tark etadi.

Shuningdek, ular tasavvuf ahliga ham tanqidlar bildiradilar — xususan, tinglash vaqtida ularning namoyon qiladigan hissiy holatlari yoki jismoniy harakatlarini tanqid qilishadi. Ibn Qayyum Jawziy bu haqda shunday deydi: “Agar ularni oʻsha tinglash paytida koʻrganingda edi — ularning ovozlari pasaygan, harakatlari sokinlashgan, yuraklari butunlay unga (yaʼni, musiqaga) mahliyo boʻlgan, qalblari bir yoʻnalishda unga intilgan. Ular tebranadilar, lekin bu mast kishining tebranishi emas. Ular oʻz harakatlarini nozik raqs bilan ifodalaydilar.



Ayollar va aysh-ishrat kishilarining yengiltak harakatlariga o‘xshash holatlar ro‘y beradi. Ular bu holatga haqlimi? Ha, ular ruhiy mastlik bilan to‘lib, u qalblarida ko‘zalardagi sharobdan ham kuchliroq ta’sir o‘tkazadi. Ammo bu Alloh uchun emas, balki Shayton uchundir — u yerda yuraklar parcha-parcha bo‘ladi, kiyimlar yirtiladi, Allohga itoatda emas, balki bekor narsalarga vaqt sarflanadi.”

Bunga asosan sunniy tasavvufga begona bo‘lgan unsurlar sabab bo‘lgan. Ba’zi bir bahislarning ta’kidlashlaricha, chet ellardagi va boshqa dinlardagi toifalar sabab bo‘lgan holatlar ham bor.

Doktor Soix Ali Husayn o‘zining “Lamahotun minat-tasavvufi va tarixihi” nomli kitobida quyidagilarni yozadi: “Tasavvufning yomon nasibalaridan biri chegarasiz ravishda boshqa madaniyatlar, yo‘nalishlar va fikrlarga ochiq bo‘lishdir. O‘shalar o‘zi bilan sog‘lom mantiq va tafakkurga to‘g‘ri kelmaydigan turli narsalarni olib kelganlar.

Hijriy yettinchi asrda Iroq va arab sharqiga hind mutasavviflari kelishgan. Ular hakimlardan ko‘ra ko‘proq firibgarlarga o‘xshar edilar. O‘shalar so‘fiylarning halqalariga turli sun’iy banjlarni olib kirdilar va ularni “banji asror” deb atadilar. Yana “Falakning aylanishiga o‘xshaydi” deb, aylanib tushiladigan raqsni ham kiritdilar. Bu raqs Mavlaviy tariqatida hozirgacha ijro etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

“Tasavvuf haqida tasavvur” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf
“Ihyo ulumud-din” Abu Homid G‘azzoliy